



**MILLIY IQTISODIYOTDA TRANSMILLIY
KORPORATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING
IQTISODIY-NAZARIY ASOSLARI**

Akramov Faxriddin Shuhratjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi
huzuridagi biznes va tadbirkorlik oliy maktabi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy iqtisodiyotda transmilliy korporatsiyalarning tutgan o'rni hamda uning rivojlantirish usullari tahlil qilingan. Iqtisodiyotning rivojida transmilliy korporatsiyalarning o'rni benihoya kata ekanligi, va uning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar. Korporatsiya, iqtisodiyot, sanoat, tarmoq, korxona, rentabellik, foyda zarar, taavakkalchilik, transmilliy korporatsiyalar.

Аннотация. В данной статье анализируется роль транснациональных корпораций в национальной экономике, а также пути ее развития. Подчеркивается роль транснациональных корпораций в развитии экономики, и ее значение.

Ключевые слова. Корпорация, экономика, промышленность, отрасль, предприятие, рентабельность, прибыль убыток, риск, транснациональные корпорации.

Annotation. This article analyzes the role of transnational corporations in the national economy and the methods of its development. The role of transnational corporations in the development of the economy is highlighted by the fact that, and its importance.

Keywords. Corporation, economy, industry, sector, enterprise, profitability, profit loss, accounting, transnational corporations.

Kirish. Jahonda korporativ boshqaruvga bo'lgan munosabat XX asrning 90 yillaridan yanada ortib, korporativ tuzilmalarni shakllantirishga turli darajalarda taraqqiy etgan davlatlar alohida e'tibor qarata boshladilar. Bu davrga kelib,

korporativ boshqaruv tamoyillari joriy etilib, xalqaro global transmilliy korporatsiyalar tashkil topdi, korporativ boshqaruv modellari joriy etildi. Bugungi kunda jahondagi rivojlangan davlatlar amaliyotida korporatsiyalarni nazariy-uslubiy jihatdan o'rganish, ularni boshqarishda strategiyalarni tanlash, aksiyadorlik jamiyatlarini korporativ boshqaruv muammolarini kompleks tadqiq etish bo'yicha ko'plab amaliy ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, jahon amaliyotida korporativ boshqaruv tizimining o'ziga xos bir-biridan ajralib turadigan 3 ta turi: ingliz, amerika, germaniya va yapon modellari keng qo'llanib kelinmoqda. Jahon tajribalari ko'rsatadiki, transmilliy kompaniyalarning korporativ boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish, korporativ boshqaruv tamoyillarini keng joriy etish, boshqaruv faoliyatiga xalqaro standartlarni tatbiq etish uchun, avvalo, korporativ boshqaruv mexanizmining zamonaviy amaliyotini o'rganish asosiy masalalardan biri bo'lib hisoblanmoqda. Chunki, jahon iqtisodiyoti globallasuvi sharoitida strategik ahamiyatga molik tarmoqlarni modernizatsiyalash, texniktexnologik yangilash, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini korporativ boshqarish samaradorligini ilmiy-metodologik asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy vazifalaridan biri ko'p ukladli iqtisodiyot muhitini yaratish, mulkni haqiqiy egalari qo'lga berish, ularga tadbirkorlik faoliyati uchun keng imkoniyatlarni yaratish bo'ldi.

Adabiyotlar tahlili. Korporatsiyalarni boshqarishning iqtisodiy nazariy-uslubiy va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini shakllantirish, transmilliy korpopratsiyalarning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligi va uni faoliyat yuritish samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini optimallashtirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari hamda oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Singapore Management University (Singapur), China National Renewable Energy Center (Xitoy Xalq Respublikasi), Kyung Hee University (Janubiy Koreya), Deutsche Energie Agentur GmbH (Germaniya), General Electric USA (AQSh), National Development and Reform Comission (Buyuk Britaniya),

SanktPeterburg iqtisodiyot va boshqaruv universiteti (Rossiya Federatsiyasi) va Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida (O'zbekiston Respublikasi) olib borilmoqda.

Muhokama. Moliyaviy globallashuv sharoitida transmilliy korporatsiyalar jahon iqtisodiyoti va xalqaro moliya munosabatlari rivojlanishining muhim elementlaridan hisoblanadi. Ohirgi yillarda ularning jadal ravishda rivojlanishi jahon xo'jaliklari aloqalarining globallashuvida, kapital va ishlab chiqarishning baynalmillashuv jarayonlarida namoyon bo'lmoqda. Transmilliy korporatsiyalar jahon xo'jaligi aloqalarining barcha sohalarida faol ishtirokchi bo'lib hisoblanadi. Transmilliy korporatsiyalar bir tomondan jadal rivojlanib borayotgan xalqaro moliya munosabatlarining mahsuli, boshqa tomondan esa, mazkur munosabatlarga ta'sir etuvchi qudratli mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Transmilliy korporatsiyalar bu jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Ular bosh kompaniya va xorijiy filiallardan tashkil topgan xo'jalik birlashmalari hisoblanadi. Bosh jamiyat birlashma tarkibiga kiruvchi korxonalar faoliyatini ularning kapitalidagi ulushlariga (ishtirokiga) egalik qilish orqali nazorat qiladi. Transmilliy korporatsiyalarning xorijiy filiallarida bosh kompaniya - boshqa davlat rezidentining ulushi odatda aktsiyalarning 10% dan ortig'ini yoki ularning ekvivalentini tashkil qiladi.

Tadqiqot natijalari. 2022 yil uchun transmilliy korporatsiyalar investitsiyalarining AQSHda 15%, Frantsiyada 20%, Buyuk Britaniyada 46%. Xalqaro [menejment](#), shu jumladan ishlab chiqarish va sotishni optimal tashkil etish, kompaniyaning yuqori obro'sini saqlash tajribasi. Ushbu turdagi samarali faoliyat manbalari dinamikdir. Ular odatda kompaniyaning aktivlari o'sishi va uning faoliyati diversifikatsiya qilinishi bilan ortadi. Shu [bilan birga](#), ushbu manbalarni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar asosiy kompaniyaning xorijiy filiallar bilan ishonchli va arzon aloqasi, xorijiy filialning qabul qiluvchi mamlakatning mahalliy firmalari bilan keng ishbilarmon aloqalari tarmog'i va ulardan mohirona foydalanish hisoblanadi. Shu bilan birga, transmilliy korporatsiyalar haqiqatan ham

o'z faoliyatining g'arazli motivlari bilan bog'liq bir qator salbiy ijtimoiy oqibatlarning manbai bo'lib qolayotganini ko'rmaslik mumkin emas. Bu bozor iqtisodiyoti va unda hukmronlik qilayotgan yirik kapitalning umumiy muammolaridan biri hisoblanadi. Lekin u xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasida alohida og'irlik kasb etmoqda. Mahalliy korxonalar qayta tashkil etish uchun emas, balki ishlab chiqarishni qisqartirish uchun, ayniqsa, kam va o'rta rivojlangan mamlakatlarda sotib olinishi odatiy hol emas. Arzon ishchi kuchi va tabiiy resurslardan foydalanish orqali yuqori daromad olgan yirik transmilliy korporatsiyalar ko'pincha foydani ushbu mamlakatlardan tashqarida investitsiya qilishni afzal ko'radilar. [Transmilliy kompaniyalar](#), jumladan, bank kompaniyalari jahon bozorida moliyaviy operatsiyalar orqali katta o'lpon oladi. Transmilliy korporatsiyalarlar ham o'z maqsadlariga erishish uchun siyosiy hayotga aralashishga, siyosiy arboblari, siyosiy guruhlar va o'zlari uchun qulay bo'lgan [rejimlarni yoqishga](#), boshqa mamlakatlarning davlat mustaqilligini cheklashga yo'l oladilar. Bularning barchasi haqiqiy hodisalar bo'lib, ularning o'z-o'zidan yo'q bo'lib ketishi dargumon. Transmilliy korporatsiyalar faoliyatini tartibga solish tizimini, salbiy ko'rinishlarni cheklaydigan o'yin normalari va qoidalarini yaratish talab etiladi. Transmilliy korporatsiyalar markazlarida joylashgan va ularning xorijiy faoliyati amalga oshirilgan mamlakatlarning monopoliyaga qarshi qonunchiligi transmilliy korporatsiyalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Quyidagi jadvaldagi ko'rsatkichlar 100 ta global transmilliy korporatsiyalarning sanoat va tarmoq ixtisoslashuvini tavsiflaydi.

100 ta global transmilliy korporatsiyalarning sanoatga ixtisoslashuvi: 2022 va 2023 yillar, [tarmoqlar soni](#), o'rtacha transmilliylik indeksi (TI)

1-Jadval

Nomi	Tarmoqlar soni	Tarmoqlar soni	Mutlaq o'sish	Nisbiy o'sish	2023 yil o'rtacha indeks
Kimyoviy mahsulotlar va farmatsevtika	22	23	1	4%	70,2
Elektronika/ elektr jihozlari	19	21	2	10%	60,7
Avtomobillar	15	16	1	6,25%	43,3
Neft, neftni qayta ishlash, kon	12	13	1	8,3%	50,2
Ovqat	9	8	-1	11,1%	77,0
Turli xil tovarlar	4	3	-1	-22%	43,6
Telekommunikatsiya	5	5	-	-	41,9
Savdo	3	3	-	-	38,3
Mashinasozlik	2	1	-1	-50%	36,0
Metallurgiya	3	2	-1	-33,3%	3,2

Qurilish	2	1	-1	-50%	69,9
Dori	1	2	1	50%	80,1
Boshqa	3	2	-1	-33,3%	55,9
Jami	100	100	2	1,67%	60,5

UNTCAD ma'lumotlariga ko'ra, XX-asrning oxiriga kelib, jahon iqtisodiyotida qariyb 280 000 filial va 45 000 transmilliy korporatsiyalar faoliyat yuritgan. Xorijga kiritilgan kapital 3,2 trilliondan ortiqni tashkil etdi.

Xulosa. Tadqiqot natijalarining shuni xulosa qilish mumkinki, korporativ boshqaruv samaradorligini baholash uslublari va baholashga yondashuvlar to'g'risidagi bilimlar doirasini sezilarli darajada kengaytiradi, shuningdek, respublikamizdagi transmilliy kompaniyalarning korporativ boshqaruv tizimini yaratish bilan bog'liq turli standart va dasturlarni ishlab chiqish hamda tatbiq etishda uslubiy material bo'lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot ishi doirasida ishlab chiqilgan nazariy-uslubiy qoidalardan O'zbekistonda korporativ boshqaruv darajasini takomillashtirishda foydalanilishi mumkin. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiyada ishlab chiqilgan samarali korporativ boshqaruv tizimini yaratish va baholash bilan bog'liq natijalar transmilliy korporatsiyalar faoliyati, boshqa manfaatdor tuzilmalarda istiqbolli dastur va rejalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali

marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq /
Sh.M. Mirziyoyev. - Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2016. – 56 b.

2.Ishmuxamedov A.E., Yusupov A.S. Milliy va jahon iqtisodi- yoti: darslik. – T.,
2010 y. – 16-18 bb.

3. Jumayev N.X., Abduraxmonov O.Q. Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi:
sabablari va uni bartaraf etish muammolari. – T.: Akademnashr, 2010. – 160 b.

4. Мировая экономика: учебник / под ред. Б.М.Смитиенко. – М.: Высшее
образование, Юрайт-Издат, 2009. – 581 с.

5. Фаминский И.П. Глобализация – новое качество мировой экономики: учеб.
пособие. – М.: Магистр, 2009. – 397 с.